ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№9(3)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 360 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Boshlang'ich ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik ahamiyati 10
Maxmudova Fotima Shamshidinovna, Murodjonova Shahzoda Elyor qizi

Turli tayyorgarlik darajasidagi nemis tili talabalarining kommunikativ kompetensiyasini differensial mashqlar orqali takomillashtirish 15
Nafisaxon Nuriddinova Tolib qizi

Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar ta'limida STEAM yondashuvining ilmiy-nazariy asoslari 19
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, G'ulomova Maryam Baxrom qizi

Oliy ta'lim muassasalarida yosh professor-o'qituvchilarning kasbiy moslashuvini mentorlik asosida boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning mazmuni 23
Boybekova Farog'at Iskandarovna

Developing Prospective English Teachers' Pragmatic Interactional Competence Through a Hybrid Pedagogical Discourse Model 27
Makhliyo Safarova

Boshlang'ich sinflarda topishmoqlarni o'rgatish metodikasi 33
Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna

Raqamli ta'lim muhitida individual yondashuv orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ... 37
Nurova Malika Abduzairovna

Informatika fanini o'qitishda o'quvchilarning media savodxonligini summativ baholash metodikasi 41
Qodirova Dilnoza Abdusalim qizi

O'quv materiallarini tanlash va moslashtirishda kompetensiyaviy yondashuvning amaliy shakl, usul va vositalari 46
Xabibullayeva Shoira Shukurillayevna

Autodesk 3ds Max muhitida maxscript asosida pluginlar yaratish texnologiyasi va ularning samaradorligini qiyosiy tahlil qilish 50
Nizomov Sunnattilla Egamberdi o'g'li

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish usullari va texnologiyalari 56
Turdimuratov Baxtiyor Kurbonovich

Taekvondochilarda musobaqaoldi yuklamalarni me'yorlash 61
Nasilloyev Akobir Murodjon o'g'li

Globallashuv sharoitida turkiy davlatlar yoshlarida yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari 66
Nazarova Dilfuza Xolmirzo qizi

Dual ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda fan dasturlari va pedagogik amaliyot mazmunini sinxronlashtirishning didaktik mexanizmi 71
Umurov Zarif Latifboyevich

Система подготовки учащейся молодёжи в Узбекистане к военной службе и современные организационно-правовые основы 76
Садыков Рустам Музафарович

Эпоха искуственного интеллекта и цифровизации как фактор трансформации высшего образования 81
Сабирова Шахноза Шавкатовна, Саидова Шоира Шагиясовна

O'quvchilarning lirik asarni anglash va talqin qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning innovatsion metodlari ... 85
Kadirova Mashhura Nasirovna

Talaba xotin-qizlarda milliy harakatli o'yinlar orqali harakat faoliyatini tushunish va bajarish ko'nikmalarini nazorat qilish hamda ularning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi ahamiyati (eshitish analizatori cheklangan talaba qizlar misolida) 90
Turg'unova Dilnura Mamanazar qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Sport zallarida ultrabinafsha nurlanishdan foydalanish texnologiyasini sport fiziologiyasi va psixofiziologik mezonlar asosida baholash 96
Nazarov Sobir Usmonovich

O'smirlarda axborot olish madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari 103
Abdulxamidova Moxigul Bobirjon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnli masalalarni yechishga o'rgatishda yangi avlod darsliklaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari 107
Zebo Qodirbekova

5–6 yoshdagi bolalarda refleksiv faoliyat elementlarini shakllantirish usullari 111
Karshiyeva Shahnoza Turakulovna

O'quvchilar fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 115
Tukhtabayeva Durdona Tulkunovna

Xulq-atvor madaniyatini shakllantirishda art-terapiya va musiqaterapiyaning pedagogik imkoniyatlari (katta guruh tarbiyalanuvchilari misolida) 120
Umaraliyeva Xadichaxon Xusanjon qizi

Badiiy kulolchilik ta'limida "puzirok" sirlash texnologiyasining badiiy-estetik va metodik imkoniyatlari 126
Madumarova Zuhraxon Rashidjon qizi

Autentik materiallar yordamida xorijiy til yo'nalishi talabalarining ingliz tilidan tinglab tushunish kompetentligini rivojlantirish omillari 131
Bobonazarova Fazilat Pardaboyevna

Jadid maktablaridagi pedagogik g'oyalari asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning ilmiy-metadologik asoslari 135
Fozilov Rustambek Shokirjonovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida raqamli immunitetni shakllantirishning nazariy-metodik asoslari 139
Ikromova Mahbuba Vali qizi

PISA xalqaro tadqiqoti natijalarining inson kapitali va iqtisodiy rivojlanishni prognozlash metodikasiga ta'siri 143
Laziz Xo'jaqulov

Oliy ta'lim muassasasi imidjini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar: tizimli tahlil va empirik yondashuv 152
Mirashirova Nargiza Anvarovna

Magistrlarni kasbiy faoliyatga yo'naltirish va tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari 156
Nazarov Bahodir Mo'minovich

Pedagogik diskurs ssenariylarini loyihalash texnologiyasi 159
Ochilova Nilufar Ulmasovna

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida sog'lomlashtiruvchi texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning jismoniy holatini optimallashtirish 163
Saidmurodov Hojiakbar Salim o'g'li

Predictive Ai For Personalized Second Language Learning: Developing a Digital Model to Predict Learner Difficulties And Optimize Language Instruction 170
Shoxiniso Yusupova

Real pedagogik vaziyatlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash 176
Sunnatov Zafar Ubaydullayevich

Talabalarda aksiologik yondashuvlar asosida axloqiy munosabatni rivojlantirishning pedagogik asoslari 181
To'rayeva Barno O'ktamovna

Human–AI Collaborative Language Learning: Developing a Framework for Effective Interaction Between Language Learners, Teachers, and Generative AI 186
Tolibova Raykhonabonu

Funksional, tabiiy-ilmiy va biologik savodxonlik imkoniyatlarining konseptual o'zaro bog'liqligi 191
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna

Talabalarda emotsional intellektni rivojlantirishning psixologik kontseptsiyasi 199
Xamrayeva Aziza Farhadovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Содержание и условия развития физической компетентности у студентов 202
Джабборова Севара Асрокул кизи

Современная дидактика высшего образования в условиях инновационной трансформации 207
Сабирова Шахноза Шавкатовна

Sun'iy intellekt asosida ta'lim mazmuni, metodlari va ta'lim resurslarini individuallashtirish 212
Mamadaliyeva Mumtozbegim Otabek qizi

Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari 217
Dilfuza A. Jo'rayeva

A Multilayer Model for Assessing English Speaking Competence Among Students in Grades 7–9 222
Mo'minxo'jayev Abrorxo'ja Muksumxodjayevich

Oilaviy munosabatlarning buzilishining psixologik xarakteristikasi 229
Butayeva Nodira Xudayarovna

O'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda pedagoglarning fasilitativ faoliyatini takomillashtirishning pedagogik mexanizmlari 233
Asadova Maxliyo Shuxratovna

Sport sohasi mutaxassislarini tayyorlashda raqamli texnologiyalarning nazariy asoslarini o'qitish masalalari 237
Nuriddinov Asliddin Husniddin o'g'li

Raqamli jamiyat sharoitida mediatsiya institutini rivojlantirish istiqbollari 242
Abdullayev Bahodir Ahmedovich

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish tizimini takomillashtirish 247
Yuldasheva Feruza Rustamjon qizi

Moddalarni metall korroziyasi ingibitorlari sifatida o'rganish 251
Yusupova Mahliyo Azamatovna

Микробуллинг в подростковой среде как фактор формирования психологической травматизации 257
Холдарова Индира Абдукаримовна

Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tili vositasida tolerantlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari 262
Adilbayeva Gulsaya Erkin qizi

Ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikning jahon tajribasida o'rganilishi va uni bartaraf etishning psixologik mexanizmlari 266
Sadullayeva Jamilaxon Ibodilla qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari 270
Abduqaxxarova Oyjahon Sultonboy qizi

Qariyalar uyi va uzoq muddatli parvarish muassasalarida psixologik xizmatning o'ziga xos xususiyatlari 275
Djumanazarov Yokubjon Turg'unbayevich

Ta'lim muassasalarida intellektual raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishning samaradorlik modeli 280
Ernazarov Zohid Nazarovich

Integrative use of POA and SCAMPER Technologies in English Language Education: Opportunities for Developing Prospective Teachers' Creative-Communicative Activity 288
Ibragimova Gulruh Rustam qizi

O'qituvchi faoliyatini kompetensiyaviy baholash indikatorlarini takomillashtirish 292
Jumakulova Mavludaxon Xosilovna

Teacher Roles and Student-Centered Learning in Uzbekistan: Lessons from Finland, Japan, and South Korea 301
Sheralieva Aziza

Профессиональное выгорание воспитателей ДОО 306
Ширбачеева Гульчехра Шакировна

Эмоциональное благополучие первоклассников как фундамент психологического здоровья детей 310
Ширбачеева Гульчехра Шакировна, Зарипова Екатерина Владимировна

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari kreativligini rivojlantirishning nazariy asoslari 314
Sheraliyeva Anora Ergashevna

Innovatsion ta'lim muhitida kasbiy mobil mutaxassis tayyorlashning pedagogik-psixologik omillari 317
Ismadiyorov Abdug'affor Abdujabborovich

O'zbek dostonchiligining rivojlanish tarixi 323
Sariyev Himoyat Matchonboyevich

Linguopragmatic Features of English Digital Discourse on Social Media in the Age Of AI 326
Davurova Gulkhayo Ibrokhim qizi

Oliy ta'limda bo'lajak pedagoglarning didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mohiyati..... 331
Asqarova Mashrabxon Orifjon qizi

Davlat sektorida meritga asoslangan hrm amaliyotlari ishga qabul qilishdan integratsiyalashgan HR tizimigacha 336
Maxmudov Asqarali

Oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik xususiyatlari..... 345
Rustamova Gavhar G'ayrat qizi

Development of Prognostic-Reflexive Competence of Future Teachers 348
Tojiboyeva Orzigul Marifjon qizi

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish..... 352
Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich

OLIY TA'LIMDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING DIDAKTIK-LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI

Asqarova Mashrabxon Orifjon qizi
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi
ORCID 0009-0001-6265-5227

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarning didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy asosini bo'lajak o'qituvchilarning instructional design va didactic design kompetentligiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va sintez metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijasida didaktik-loyihalash kompetentligi o'quv mazmunini va ta'lim oluvchilarning xususiyatlarini tahlil qilish, ta'lim maqsadlarini belgilash, ta'lim faoliyatlarini loyihalash, metod va vositalarni tanlash, ta'lim natijalarini baholash hamda ishlab chiqilgan loyihani takomillashtirishni qamrab oluvchi kompleks kompetentlik ekanligi aniqlandi. Mazkur kompetentlikni rivojlantirishda nazariy bilimlarning amaliy loyihalash faoliyati va refleksiv-baholash jarayonlari bilan uyg'unligi muhimligi asoslandi. Pedagogika fanlari misolida bo'lajak pedagoglarning didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishda ushbu tarkibiy jihatlarni tizimli ravishda birlashtirish zarurligi xulosa qilindi.

Kalit so'zlar: bo'lajak pedagog, didaktik-loyihalash kompetentligi, didaktik loyihalash, instructional design, pedagogik ta'lim, pedagogika fanlari, ta'lim jarayoni, refleksiya, baholash.

Abstract: The article examines the pedagogical essence of developing the didactic-design competence of future teachers in higher education. The theoretical basis of the study consists of scholarly works devoted to instructional design and didactic design competence among prospective teachers. The study employs the methods of scientific literature analysis, comparative analysis, systematization, generalization, and synthesis. The analysis demonstrates that didactic-design competence is a complex competence involving the analysis of learning content and learner characteristics, formulation of educational objectives, design of learning activities, selection of teaching methods and resources, assessment of learning outcomes, and subsequent improvement of the developed instructional design. The study substantiates the importance of integrating theoretical knowledge, practical design activities, and reflective-evaluative processes in developing this competence. It is concluded that these components should be systematically integrated when developing a methodology for enhancing the didactic-design competence of future teachers through pedagogical disciplines.

Key words: future teachers, didactic-design competence, didactic design, instructional design, teacher education, pedagogical disciplines, educational process, reflection, assessment.

Аннотация: В статье рассматривается педагогическая сущность развития дидактико-проектировочной компетентности будущих педагогов в процессе высшего образования. Теоретическую основу исследования составили научные работы, посвящённые компетентности в области instructional design и didactic design будущих учителей. В исследовании использованы методы анализа научной литературы, сравнительного анализа, систематизации, обобщения и синтеза. В результате анализа установлено, что дидактико-проектировочная компетентность представляет собой комплексную компетентность, включающую анализ содержания обучения и особенностей обучающихся, определение целей обучения, проектирование учебной деятельности, выбор методов и средств обучения, оценивание образовательных результатов и последующее совершенствование разработанного проекта. Обоснована важность взаимосвязи теоретических знаний, практической проектировочной деятельности и рефлексивно-оценочных процессов в развитии данной компетентности. Сделан вывод о необходимости системного объединения указанных компонентов при разработке методики развития дидактико-проектировочной компетентности будущих педагогов на примере педагогических дисциплин.

Ключевые слова: будущие педагоги, дидактико-проектировочная компетентность, дидактическое проектирование, instructional design, педагогическое образование, педагогические дисциплины, образовательный процесс, рефлексия, оценивание.

KIRISH

Oliy ta'limda bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni ta'lim jarayonini maqsadli rejalashtirish va tashkil etishda qo'llay olish bilan ham bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak pedagogning didaktik-loyihalash kompetentligini shakllantirish alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi. Chunki pedagogik faoliyatda ta'lim maqsadini belgilash, o'quv mazmunini tanlash, ta'lim faoliyatini loyihalash, tegishli vosita va resurslarni aniqlash hamda o'quv natijalarini baholash o'zaro bog'langan holda amalga oshiriladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning instructional design competence'ini o'rgangan Khaewphuang va Nuangchalerm tadqiqotida mazkur kompetentlik bilim, qobiliyat va shaxsiy sifatlar bilan bog'liq uchta yo'nalish orqali tavsiflangan. Tadqiqotchilar bilim va qobiliyat tarkibida o'quv dasturini tahlil qilish, ta'lim oluvchini tahlil qilish, ta'lim maqsadlarini belgilash, o'quv faoliyatini loyihalash, ta'lim vositalari va resurslarini tanlash, shuningdek, o'quv natijalarini o'lchash va baholash kabi komponentlarni ajratganlar [1]. Ushbu natijalar didaktik-loyihalash faoliyatining alohida amaliy harakatlar yig'indisi emas, balki o'zaro bog'langan kompetensiyalar majmuasi sifatida qaralishini ko'rsatadi.

Bo'lajak pedagoglarning didaktik loyihalash faoliyatini rivojlantirish masalasi ularning kasbiy tayyorgarligini tashkil etish shakllari bilan ham bog'liq. Cheng tomonidan Gonkongdagi bo'lajak o'qituvchilar ishtirokida olib borilgan tadqiqotda nazariy mashg'ulotlar, maslahatlashuvlar va amaliy tadqiqot darslari asosida tashkil etilgan Learning Study kursining ta'lim natijalari bilan aloqasi o'rganilgan. Tadqiqotda 341 nafar bo'lajak o'qituvchi qatnashgan bo'lib, nazariy mashg'ulotlar, konsultativ yordam va amaliyot instructional design skills, teaching competency hamda clinical experience kabi natijalar bilan bog'liqligi aniqlangan [2].

Mazkur tadqiqot natijasi bo'lajak pedagoglarda loyihalash kompetentligini rivojlantirish faqat nazariy ma'lumot berish bilan cheklanmasdan, uni maslahat va amaliy faoliyat bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadigan dalil sifatida qaralishi mumkin. Didaktik loyihalashning amaliy mahsulotlarida uning qay darajada namoyon bo'lishi ham muhim masalalardan biridir. Straková va Hrmo tomonidan Chexiya Respublikasidagi bo'lajak o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan o'quv materiallarining didaktik dizayni tahlil qilingan tadqiqotda umumiy didaktik dizayn koeffitsiyentining o'rtacha qiymati 26 foizni tashkil etgani qayd etilgan. Mualliflar, xususan, o'quv jarayonini boshqarish komponenti eng zaif jihatlardan biri bo'lganini ko'rsatganlar [3]. Bu natija bo'lajak pedagogning o'quv materialini yaratish qobiliyati bilan uni didaktik jihatdan yaxlit loyihalash qobiliyati aynan bir narsa emasligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, bo'lajak pedagoglarda didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirish masalasini faqat tayyor o'quv materiallarini yaratish doirasida ko'rib chiqish yetarli emas. Mazkur kompetentlik ta'lim maqsadini anglashdan boshlab, mazmun va ta'lim faoliyatini tanlash, ta'lim vositalarini belgilash hamda kutilayotgan natijalarni baholashgacha bo'lgan o'zaro bog'liq loyihalash jarayonini qamrab oladi. Shuning uchun oliy ta'limda bo'lajak pedagoglarning didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shartlari, mazmuni va metodikasini ilmiy jihatdan asoslash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi bo'lajak pedagoglarning didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mohiyatini ilmiy manbalar asosida yoritish hamda ushbu kompetentlikning mazmuniy tarkibini aniqlashdan iborat. Shu maqsad asosida didaktik-loyihalash kompetentligining mazmuni, tarkibiy jihatlari va uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik jarayon xususiyatlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak pedagoglarning didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda instructional design competence va didactic design tushunchalari doirasida o'rganilmoqda. Mavjud ilmiy ishlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilar mazkur kompetentlikni faqat tayyor dars yoki o'quv materialini yaratish qobiliyati bilan cheklamay, ta'lim jarayonini maqsadli loyihalash, uning tarkibiy qismlarini o'zaro bog'lash va kutilayotgan ta'lim natijalariga yo'naltirish bilan bog'laydilar.

Khaewphuang va Nuangchalerm tomonidan 2025-yilda olib borilgan tadqiqot bo'lajak o'qituvchilarning instructional design competence tarkibini aniqlash va validatsiya qilishga qaratilgan. Tadqiqotda dastlab tegishli nazariya va konsepsiyalar tahlil qilingan, ekspertlar bilan suhbatlar o'tkazilgan hamda ishlab chiqilgan vosita 471 nafar bo'lajak o'qituvchida sinovdan o'tkazilgan. Tadqiqotchilar instructional design competence'ni uchta asosiy yo'nalish – bilim, qobiliyat va shaxsiy sifatlar orqali tavsiflagan.

Bilim va qobiliyat tarkibida o'quv dasturini tahlil qilish, ta'lim oluvchini tahlil qilish, ta'lim maqsadlarini belgilash, o'quv faoliyatini loyihalash, ta'lim vositalari va resurslarini tanlash hamda o'quv natijalarini o'lchash va baholash komponentlari ajratilgan. Tadqiqotning ushbu natijasi bo'lajak pedagogning didaktik-loyihalash kompetentligini tarkibiy jihatdan o'rganishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chengning 2014-yildagi tadqiqoti esa bo'lajak o'qituvchilarda instructional design va teaching competency'ni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus ta'lim kursining samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan.

Tadqiqot Gonkongdagi Bachelor of Education dasturining ikkinchi bosqich talabalari uchun tashkil etilgan Learning Study kursi asosida olib borilgan. Kurs nazariy mashg'ulotlar, maslahatlashuvlar va research lesson practicum kabi faoliyatlarni o'z ichiga olgan. Muallif ushbu kursning bo'lajak o'qituvchilarning instructional design skills, teaching competency va amaliy tajribasi bilan bog'liqligini o'rgangan.

Mazkur tadqiqot biz uchun, avvalo, didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirishda nazariy bilimni amaliy loyihalash faoliyati bilan bog'lash masalasining ahamiyatini ko'rsatadi. Zhang, Liu, Yang, Tripp va Shao tomonidan olib borilgan tadqiqotda 118 nafar bo'lajak science teachersning instructional design competence'i o'rganilgan. Tadqiqotchilar kompetentlikni yaxlit, dinamik va jarayonli yondashuv asosida ko'rib chiqib, uni baholash uchun analitik ierarxik tizim ishlab chiqqanlar. Tadqiqot ishtirokchilari designing, teaching, revising va evaluating/improving bosqichlarini qamrab oluvchi ADTRE modelidan foydalanganlar. Shuningdek, tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning tayyorlagan dars ishlanmalari ham tahlil qilingan [4]. Ushbu tadqiqot natijalari didaktik-loyihalash kompetentligini bir martalik rejalashtirish harakati sifatida emas, balki tahlil, loyihalash, amalga oshirish, qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni o'z ichiga oluvchi izchil jarayon sifatida o'rganish imkonini beradi. Bunda tadqiqot aynan science teachers ishtirokida olib borilganini alohida qayd etish lozim; shu sababli uning natijalari mazkur maqolada pedagogika fanlariga oid bevosita empirik natija sifatida emas, balki bo'lajak o'qituvchilarning instructional design kompetentligini tushuntirishga xizmat qiluvchi ilmiy dalil sifatida qo'llanadi.

Straková va Hrmo tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan tadqiqotda Chexiya Respublikasidagi bo'lajak o'qituvchilar tomonidan universitet bitiruv ishlarida yaratilgan o'quv materiallarining didaktik dizayni tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida umumiy didaktik dizayn koeffitsiyentining o'rtacha qiymati 26 foizni tashkil etgani, o'quv jarayonini boshqarish komponenti esa eng zaif jihatlardan biri bo'lgani aniqlangan. Mualliflar bo'lajak o'qituvchilar yaratgan materiallarda didaktik tuzilmaning ayrim komponentlaridan cheklangan darajada foydalanilganini qayd etadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda bo'lajak pedagoglarning didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirish masalasi nazariy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va sintez metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar asosida didaktik-loyihalash kompetentligining mazmuni, tarkibiy jihatlari hamda uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik omillar aniqlandi. Shuningdek, mavjud ilmiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, bo'lajak pedagoglarda mazkur kompetentlikni rivojlantirishning asosiy metodik yo'nalishlari umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak pedagoglarning didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirish masalasiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida mazkur kompetentlikni rivojlantirish jarayonining mazmuni, tarkibiy tuzilishi va uni shakllantirishga ta'sir etuvchi faoliyat turlariga doir bir qator ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Avvalo, didaktik-loyihalash kompetentligini alohida, bir-biridan ajralgan ko'nikmalar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'langan loyihalash harakatlari tizimi sifatida qarash zarurligi aniqlandi. Khaewphuang va Nuangchalerm tadqiqotida bo'lajak o'qituvchilarning instructional design competence'i bilim, qobiliyat va shaxsiy sifatlar bilan bog'langan holda ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotchilar mazkur kompetentlik tarkibida o'quv dasturini tahlil qilish, ta'lim oluvchini tahlil qilish, ta'lim maqsadlarini belgilash, o'quv faoliyatini loyihalash, ta'lim vositalari va resurslarini tanlash hamda o'quv natijalarini baholash kabi jihatlarni ajratganlar. Mazkur natijalar asosida didaktik-loyihalash kompetentligining mazmunini aniqlashda faqat dars rejasini tuzish bilan cheklanib qolmasdan, loyihalashning boshlang'ich tahliliy bosqichidan yakuniy baholashgacha bo'lgan jarayonini hisobga olish lozimligi belgilandi.

Ikkinchi muhim natija didaktik-loyihalash faoliyatining izchilligi bilan bog'liq. Zhang va hammualliflarining tadqiqotida bo'lajak science teachersning instructional design competence'i tahlil qilinib, loyihalash jarayoni analyzing, designing, teaching, revising va evaluating/improving bosqichlari orqali ko'rib chiqilgan [5]. Tadqiqotning aynan science teachers bilan olib borilganini hisobga olgan holda, ushbu modelni pedagogika fanlariga tayyor holatda ko'chirish mumkin emas. Biroq undagi tahlil–loyihalash–amalga oshirish–qayta ko'rib chiqish–takomillashtirish ketma-ketligi bo'lajak pedagogning didaktik-loyihalash faoliyatini jarayon sifatida tushunish uchun nazariy asos bo'la oladi.

Uchinchi natija didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirishda nazariya va amaliyotning o'zaro bog'liqligi bilan tavsiflanadi. Cheng tadqiqotida bo'lajak o'qituvchilar uchun tashkil etilgan Learning Study kursi tarkibida nazariy mashg'ulotlar, konsultativ uchrashuvlar va amaliy research lesson mavjud bo'lgan. Tadqiqot nati-

jalari ushbu faoliyatlarning instructional design skills, teaching competency va amaliy tajriba bilan bog'liqligini ko'rsatgan. Shu asosda didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirish metodikasida nazariy bilimni amaliy loyihalash topshiriqlari bilan bog'lash, ishlab chiqilgan loyihalarni muhokama qilish va ularni qayta takomillashtirish imkoniyatlarini yaratish muhim metodik yo'nalish sifatida belgilandi.

To'rtinchi natija didaktik-loyihalash kompetentligini amaliy mahsulotlar orqali ham namoyon etish mumkinligini ko'rsatadi. Straková va Hrmo tomonidan Chexiya Respublikasidagi bo'lajak o'qituvchilar tomonidan yaratilgan o'quv materiallarining didaktik dizayni tahlil qilingan. Tadqiqotda umumiy didaktik dizayn koeffitsiyentining o'rtacha qiymati 26 foizni tashkil etgani va o'quv jarayonini boshqarish komponentida nisbatan zaiflik kuzatilgani qayd etilgan [6]. Ushbu natijani to'g'ridan-to'g'ri pedagogika fanlariga ko'chirish mumkin emas, chunki tadqiqotning o'ziga xos konteksti mavjud. Biroq u bo'lajak pedagog tomonidan ishlab chiqilgan o'quv materiali yoki dars loyihasini didaktik mezonlar asosida tahlil qilish kompetentlikni aniqlashning amaliy vositalaridan biri bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Olib borilgan adabiyotlar tahlili bo'lajak pedagoglarning didaktik-loyihalash kompetentligini alohida bir ko'nikma emas, balki o'zaro bog'liq bilim, amaliy faoliyat va baholash jarayonlarini qamrab oluvchi kompleks kompetentlik sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. Khaewphuang va Nuangchalerm tomonidan olib borilgan tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning instructional design kompetensiyasi bilim, qobiliyat va shaxsiy sifatlar bilan bog'liq holda tavsiflangan hamda o'quv dasturini tahlil qilish, ta'lim oluvchilarni tahlil qilish, maqsadlarni belgilash, ta'lim faoliyatlarini loyihalash, vositalarni tanlash va natijalarni baholash kabi tarkibiy jihatlar ajratilgan. Mazkur yondashuv didaktik-loyihalash kompetentligining faqat tayyor dars rejasini tuzish bilan chegaralanmasligini ko'rsatadi.

Cheng tadqiqotida esa bo'lajak pedagoglarda instructional design va o'qitish kompetentligini rivojlantirishda nazariy mashg'ulotlar bilan bir qatorda maslahatlashuv hamda amaliyotga asoslangan faoliyatlarning ahamiyati o'rganilgan. Bu holat didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirish jarayonida nazariy bilimlarni amaliy pedagogik vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlarini yaratish muhimligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, oliy ta'lim jarayonida bo'lajak pedagogga faqat loyihalashning nazariy asoslarini o'rgatish bilan cheklanmasdan, real yoki modellashtirilgan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, ta'lim maqsadini belgilash, metod va vositalarni tanlash hamda kutilayotgan natijalarni baholashga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Zhang va hammualliflarining tadqiqotida bo'lajak fan o'qituvchilarining instructional design kompetentligi jarayonli va dinamik xususiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan. Mualliflar kompetentlikni tahlil qilish, loyihalash, o'qitish, qayta ko'rib chiqish va baholash/takomillashtirish bosqichlari bilan bog'liq holda o'rganganlar [7]. Mazkur natija didaktik loyihani bir martalik tayyor mahsulot sifatida emas, balki tahlil, amaliy qo'llash, baholash va qayta takomillashtirishni o'z ichiga oluvchi jarayon sifatida ko'rish zarurligini asoslashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot fan o'qituvchilari misolida olib borilganini hisobga olish lozim; shuning uchun uning natijalari pedagogika fanlari uchun bevosita empirik dalil sifatida emas, balki didaktik loyihalash kompetentligining jarayonli xususiyatini tushuntiruvchi nazariy manba sifatida talqin qilinadi.

Straková va Hrmo tomonidan bo'lajak o'qituvchilar tomonidan yaratilgan o'quv materiallarining didaktik dizayni o'rganilib, ularda didaktik loyihalashning ayrim tarkibiy jihatlari yetarli darajada ifodalanmaganligi aniqlangan. Mazkur tadqiqot ham didaktik loyihalash kompetentligini rivojlantirishda faqat nazariy bilimga ega bo'lish yetarli emasligini, balki mazkur bilimlarni aniq ta'limiy mahsulot va faoliyatni loyihalashda qo'llash qobiliyatini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Biroq ushbu tadqiqotning tadqiqot obyekti va konteksti alohida ekanligi sababli uning natijalarini pedagogika fanlari bo'yicha bo'lajak pedagoglarga to'liq ko'chirish emas, balki umumiy didaktik loyihalash muammosini tushuntirish doirasida foydalanish maqsadga muvofiq.

Tahlil qilingan manbalarni umumlashtirish asosida bo'lajak pedagoglarning didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirishda uchta o'zaro bog'liq jihatni ajratish mumkin:

- bilimiy, faoliyatli va refleksiv-baholovchi jihatlar. Bilimiy jihat didaktik loyihalashning mazmuni, tamoyillari va tarkibiy qismlarini bilishni;
- faoliyatli jihat mazkur bilimlarni pedagogik vaziyatlarni loyihalashda amaliy qo'llashni;
- refleksiv-baholovchi jihat esa yaratilgan loyihani tahlil qilish, natijalarni baholash va zarur hollarda uni takomillashtirishni nazarda tutadi.

Ushbu uchlik mazkur maqolada olib borilgan manbalar tahlilining umumlashtirilgan ilmiy talqini bo'lib, alohida bir muallifning tayyor tasnifi sifatida taqdim etilmaydi. Shunday qilib, bo'lajak pedagoglarning didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda ta'lim jarayonini tashkil etish muhim metodik yo'nalish sifatida qaralishi mumkin. Ayniqsa, pedagogika fanlari misolida bo'lajak pedagoglarning mustaqil pedagogik qaror qabul qilishi, ta'lim mazmunini maqsadga muvofiq tanlashi, ta'lim faoliyatini loyihalashi va o'z loyihasini tanqidiy baholashi uchun shart-sharoit yaratish kompetentlikning amaliy mazmunini kuchaytiradi.

Mazkur nazariy xulosalar bo‘lajak pedagoglarning didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan metodikani ishlab chiqish uchun konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunda metodikaning samaradorligi keyingi bosqichda maxsus pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali alohida tekshirilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy tahlil natijasida bo‘lajak pedagoglarning didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirish zamonaviy oliy pedagogik ta’limning muhim vazifalaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Tahlil qilingan ilmiy manbalarda mazkur kompetentlik o‘quv mazmunini tahlil qilish, ta’lim oluvchilarning xususiyatlarini hisobga olish, maqsadlarni belgilash, ta’lim faoliyatlarini loyihalash, tegishli metod va vositalarni tanlash hamda ta’lim natijalarini baholash bilan bog‘liq kompleks faoliyat sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi [8].

Manbalarni qiyosiy tahlil qilish didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirishda nazariy bilimlarning amaliy loyihalash faoliyati bilan uyg‘unligi, yaratilgan ta’lim loyihalarini baholash va zarur hollarda qayta takomillashtirish muhimligini ko‘rsatdi [9]. Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv materiallarining didaktik jihatdan yetarli darajada takomillashmaganligi haqidagi natijalar kompetentlikni shakllantirish jarayonida amaliy topshiriqlar va metodik qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor berish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot doirasida didaktik-loyihalash kompetentligining bilimiy, faoliyatli va refleksiv-baholovchi jihatlari o‘zaro bog‘liq holda qaraldi. Mazkur jihatlarning izchil rivojlantirilishi bo‘lajak pedagogning pedagogik vaziyatni tahlil qilishdan boshlab, ta’lim jarayonini loyihalash, uni amaliyotga tatbiq etish va natijalar asosida takomillashtirishgacha bo‘lgan faoliyatini tizimli tashkil etish imkonini beradi.

Shu asosda, pedagogika fanlari misolida bo‘lajak pedagoglarning didaktik-loyihalash kompetentligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishda pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishga, maqsad va mazmunni uyg‘unlashtirishga, amaliy loyihalash topshiriqlarini tashkil etishga hamda refleksiv-baholash mexanizmlaridan foydalanishga yo‘naltirilgan yondashuvni shakllantirish zarur. Mazkur nazariy xulosalar keyingi bosqichda ishlab chiqiladigan metodikaning mazmuni va tuzilmasini belgilash hamda uning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov orqali tekshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Khaewphuang P., Nuangchalerm P. Components and Indicators of Instructional Design Competence for Thai Pre-Service Teachers // Journal of Practical Studies in Education. - 2025.
2. Cheng E.C.K. Learning Study: Nurturing the Instructional Design and Teaching Competency of Pre-Service Teachers // Asia-Pacific Journal of Teacher Education. - 2014.
3. Zhang R., Liu X., Yang Y., Tripp J., Shao B. Preservice Science Teachers’ Instructional Design Competence: Characteristics and Correlations // EURASIA Journal of Mathematics, Science and Technology Education. - 2018.
4. Straková N., Hrmo R. Didactic Design of Teaching Materials Created by Future Teachers in the Czech Republic // International Journal of Engineering Pedagogy. - 2024.
5. Beyer C.J., Davis E.A. Developing Preservice Elementary Teachers’ Pedagogical Design Capacity for Reform-Based Curriculum Design // Curriculum Inquiry. - 2012.
6. Davis E.A., Beyer C., Forbes C.T., Stevens S. Understanding Pedagogical Design Capacity through Teachers’ Narratives // Teaching and Teacher Education. - 2011.
7. Ren X., Chano J., Saihong P. Developing a TPACK-Based Course to Promote the Pre-Service Preschool Teachers’ Instructional Design Competence // Higher Education Studies. - 2025.
8. Novita R., Putra M., Junita S., Rahmi R. From Design to Practice: Understanding by Design as a Framework for Developing Didactic Competence in Pre-Service Teachers // Plusminus: Jurnal Pendidikan Matematika. - 2025.
9. Myers J.P., Rivero K. Preparing Globally Competent Preservice Teachers: The Development of Content Knowledge, Disciplinary Skills, and Instructional Design // Teaching and Teacher Education. - 2019.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.